

MATN USTIDA ISHLASH. MATNNI BOSQICHMA-BOSQICH O‘RGATISH VA UNI HAYOT BILAN BOG‘LASH

Obidjonova Ruxshona

O‘zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti talabasi
Tel.: 95 774 31 22; email:ruxshonaobidjonova0212@gmail.com

Annotatsiya. *Matn ustida ishlash ko‘pincha boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga xos bo‘lgan mashg‘ulotdir. Chunki aynan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari savod chiqargandan so‘ng matn, hikoya yoki kichkina she‘riy masallarning tahlili bilan shug‘ullanish orqali o‘zlarining bilim saviyalarini oshiradilar. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘quvchilarga matn orqali turli xil bilimlarni berishi mumkin. Masalan: matnni tahlil qilish orqali bilim olishni, yaxshilik va yomonlikni, odob-axloqni, tarbiyani, oq-u qorani bir-biridan ajratishni bilish bilan birgalikda, ilmiy bilimlarni ham egallaydilar. Buning uchun esa matnni aniq va to‘g‘ri tahlil qilish uslubidan foydalanmoq kerak. Matnning mag‘zini o‘quvchilarga ochib berish uchun bir nechta bosqichlar mavjud bo‘lib, bu bosqichlar ushbu maqolada misollar orqali yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *matn, tahlil, analiz, sintez, bosqich, chumoli, non, amir, savol-javob va boshqalar.*

Matn ustida ishlash ko‘pincha boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga xos bo‘lgan mashg‘ulotdir. Chunki aynan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari savod chiqargandan so‘ng matn, hikoya yoki kichkina she‘riy masallarning tahlili bilan shug‘ullanish orqali o‘zlarining bilim saviyalarini oshiradilar. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘quvchilarga matn orqali turli xil bilimlarni berishi mumkin. Masalan: matnni tahlil qilish orqali bilim olishni, yaxshilik va yomonlikni, odob-axloqni, tarbiyani, oq-u qorani bir-biridan ajratishni bilish bilan birgalikda, ilmiy bilimlarni ham egallaydilar.

Buning uchun esa matnni aniq va to‘g‘ri tahlil qilish uslubidan foydalanmoq kerak. Matnning mag‘zini o‘quvchilarga ochib berish uchun quyidagi bosqichlarga amal qilinsa matn o‘quvchi ongida tez analiz va sintez qilinadi:

- O‘qituvchi o‘quvchilar bilan bugungi yangi matnni hayotga bog‘lab o‘quvchilarga bir nechta anonim savollar beradi (og‘zaki), bu orqali o‘quvchilarning bilim saviyasini bilib olish mumkin. Masalan: matn do‘stlik haqida bo‘lsa, sizning eng yaqin do‘stingiz kim? Do‘stlik deganda nimani tushunasiz?
- Keyingi bosqichda esa matn ichidagi o‘quvchilarga yangi bo‘lgan so‘zlar sinf taxtasiga yozilib o‘quvchilarga bu so‘zlarning lug‘aviy ma‘nosi tushuntiriladi. Bunda o‘qituvchi ham matnni tahlil qilish paytida qiynalmaydi, ham o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshiradi.

Masalan: matn ichida antivirus so‘zi qatnashib qoldi, bu tushunchani o‘qituvchi sinf taxtasiga yozib, dastlab virus haqida so‘ngra antivirus haqida ma'lumot beradi.

- Matn intonatsiya va ohang bilan o‘qituvchi tomonidan o‘qib beriladi. O‘qituvchi matnni shunday obrazli qilib ifodali o‘qishi kerakki, matnni eshitayotgan o‘quvchilar xuddi hikoyani ichida yurib uning ishtirokchisga aylanib qolishlari kerak, shunda o‘qilayotgan matnning 60 foizi o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bo‘ladi.

- O‘qituvchi ifodali o‘qib bo‘lganidan keyin uni qayta hikoya qilib beradi. Qayta hikoya qilib berish ham matnning ayni o‘zini takrorlab o‘qib berishga teng bo‘lishi kerak.

- bu bosqichda esa matn istalgan xohlovchi o‘quvchilar tomonidan qayta hikoyalab beriladi. Shunda o‘quvchilar matnni qanday darajada eslab qolganlari bilinadi, qolgan o‘quvchilar esa takroran eshtishlardan so‘ng matnni qisman puxta egallaydilar.

- Matndagi voqealar va obrazlar hayot bilan bog‘lanadi.

Masalan: tulki obrazi hayotda ayyor va makkora insonlar obrazini ochib beradi, buni hayotga bog‘lash uchun esa hayotiy savollar beriladi: Siz ayyor deganda qanday odamlarni ko‘z oldingizga keltirasiz? Hayotingizda makkor odamlarni uchratganmisiz?

- Matn yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi?

Masalan: matn qahramoning ismi, uning qanday xarakterga ekanligi, matnda qanday salbiy obrazlar borligi so‘raladi.

2-sinf ”Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligidagi ”Amirni yenggan non” audiomatni ustida ishlash

Audiomatn o‘quvchilarga eshittiriladi:

“Samarqand nonlari qadimdan ajoyib mazasi bilan dong taratgan. Hozir ham hech kim Samarqanddan Samarqand nonisiz qaytmaydi. Aytishlaricha, haqiqiy Samarqand noni uch yilgacha aynimas ekan. Uni ancha vaqtgacha yuziga suv purkab, tandir yoki pechda isitib, tanovvul qilish mumkin. Samarqand nonini qadimda Buxoro amiri ham juda yaxshi ko‘rgan ekan. Shu sababli Amir ushbu nonni o‘z saroyida yopishlarini istabdi. Saroy ayonlari Samarqanddan eng yaxshi nonvoyni olib kelib, unga Samarqand nonini yopishni buyuribdi. Nanvoy ular aytgandek qilibdi. Ammo uning barcha urinishlariga qaramay nonning na mazasi, na yumshoqligi Samarqandda yopgan nonlardek chiqmabdi. Shunda nonvoy: “Hamma gap Samarqand suvida yoki unida, balki Samarqand tuprog‘idan yasalgan tandirda bo‘lsa kerak”, -debdi. U aytgandek qilib, Samarqand suvini ham, uni va tandirini ham keltirishibdi. Lekin bu gal ham tandirdan chiqqan non ko‘ngildagidek bo‘lmabdi. Shunda nonvoy: “Nonlarimning Samarqanddagidek chiqishi uchun Samarqand havosi ham zarur bo‘lsa kerak”, -debdi. Samarqand havosini olib kelishning iloji yo‘qligini tushungan Amir nonvoyni ortiq qiynamabdi. Amir sevgan nonlarni yana Samarqanddan keltirishda davom etishibdi”.

Matn o‘qituvchi tomonidan qayta hikoya qilinib, ikkinchi marta eshitishga ruxsat berilsa, o‘quvchilarning matnni tushunishi yana ham osonlashadi. Imkoni bo‘lsa o‘quvchilarning birortasiga qayta hikoyalatish kerak. Chunki o‘quvchilar o‘z tengdoshlarining imkoniyat darajasini o‘zlariga solishtira oladilar. Mavzu asosida tuzilgan savollar asosida o‘quvchilar bilan savol-javob o‘tkaziladi. Darslikda audiomatni uchun quyidagi savollar ishlatilgan.

O‘quvchilarning matn mazmunini to‘liq anglab yetishlari, tushunishlari uchun hayot bilan bog‘lab savollar tuzish, o‘quvchilarni o‘ylashga undaydigan savollardan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1. Amir nima uchun aynan Samarqand nonlarini yaxshi ko‘radi, deb o‘ylaysiz?
2. Non Amirni yengganini qanday tushundingiz?
3. Non haqida maqol ayta olasizmi? Uni izohlashga harakat qiling.
4. Nima deb o‘ylaysiz, Amir nonvoyga yana qanday sharoit yaratib berganida nonlar u aytganidek chiqar edi.
5. Siz nonni sizgacha yetib kelgan bosqichlarini bilasizmi? Qanday bosqichlardan iborat bo‘ladi? Ular nimalar?
6. Nima deb o‘ylaysiz, mol-davlat, kuch-qudrat bilan ham erishib bo‘lmaydigan narsalar ko‘pmi?
7. Sizningcha, nonvoy o‘z kasbining sir-sinoatini Amirga aytib berishga nima majbur qildi?
8. Bolajonlar, ayting-chi, nonni ilk bor tayyorlashni odamzod qanday o‘rgangan bo‘lishi mumkin?
9. Nima uchun Samarqandni non bilan bog‘lab tilga olamiz?
10. Nonni nima uchun muqaddas sanaymiz? Yana qanday muqaddas narsalarni bilasiz?
11. Samarqand nonlarining mashhurligini yana nimalarga bog‘ab tushuntirish mumkin?
12. Ota-bobolarimiz “Nonning ushug‘i ham non” deyishining sababini tushuntira olasizmi?
13. Non bilan bog‘liq urf-odatlarimiz, an‘analarimiz haqida bilasizmi?
14. Do‘kondan yoki novvoyxonadan non sotib olganingizda uning bahosini aslida qanchaga teng deb hisoblash mumkin?
15. Hozirgi kunda odamlarning nonga bo‘lgan munosabati haqida fikr bildira olasizmi?

1-topshiriq. Audiomatni diqqat bilan tinglagach, quyidagi so‘zlarni ma‘nosi bilan solishtirib o‘qing.

1. Tandır, 2. Savat, 3. Nonvoy, 4. Rapida, 5. Amir, 6. Kosov

A. Non yopishda ishlatiladigan, qalin, aylana shaklidagi qo‘lqop.

B. Amirlikni boshqarib turuvchi podshoh.

C.Tandir olovini, chog‘ini to‘g‘irlash uchun ishlatiladigan tayoq.

D.Non pishiriladigan, ichida olov yonib, qizib turadigan narsa.

E.Tandirdan uzilgan non solinadigan idish.

F.Xamir qorib, non pishiruvchi shaxs

2-topshiriq. Matn asosida narsaning nomini bildiradigan va narsaning belgisini bildiradigan so‘zlarni toping. Topgan so‘zlaringiz asosida gap tuzishga harakat qiling. Tandir, ajoyib, yaxshi, olov, non, yumshoq, savat.

Matn bilan ishlash jarayonida non mavzusiga oid matnlar haqida ham suhbatlashish mumkin. Masalan, “Non isi” rivoyatida ham nonga bo‘lgan hurmat ifodalangan. “Shirin kulcha” qo‘shig‘ini tinglab, muhokama qilish ham foydali.

Chumolining jasorati

Qadim zamonda turli-tuman gul va maysalarga burkangan keng o‘tloq bo‘lgan ekan. U yerda qo‘y-qo‘zilar, kakliklar, tipratikanlar, toshbaqalar bilan birga turli hasharotlar ham ahil-inoq yashar ekan. Bir yili yoz juda issiq kelibdi. Yomg‘ir deyarli yog‘mabdi. Jazirama quyosh tig‘ida o‘simliklar qurib, qovjirab qolibdi. Shunday kunlarning birida yaylovga o‘t ketibdi. Kutilmagan yong‘in jonzotlarni vahimaga solibdi. Hamma tumtaraqay qocha boshlabdi. Birgina chumoli qochmabdi. U o‘tloq yaqinidagi buloqdan mitti og‘izchasida suv keltirib, olovga purkay boshlabdi. Bu holni ko‘rgan boshqa jonzotlar shunday deyishibdi:

– Ey chumoli, esingni yedingmi?! Sen olib kelayotgan suv zarrasi bilan olov o‘chib qolarmidi? Qo‘y bu ishingni, joningni asra!

Shunda chumoli yumushidan to‘xtamay javob beribdi:

– To‘g‘ri aytasiz, bir zarra suv yong‘inni o‘chirmaydi. Lekin men urinib ko‘rmoqchiman. Chunki bu o‘tloq – mening vatanim. Uni asrash uchun menda zarradek imkoniyat bo‘lsa, shu imkoniyatdan foydalanaman. Chumolining bu gapi o‘tloq ahliga qattiq ta’sir qilibdi. Har tarafga chopayotgan jonzotlar birdan to‘xtab, chumolining ortidan ergashishibdi. Asalari chelakchasida, kaklik tumshug‘ida, qo‘y-qo‘zilar og‘zida suv keltirib, olovni o‘chirishga shoshilishibdi. Xullas, barcha jonzotlar bir yoqadan bosh chiqarib olovga suv sepishganida xuddi osmondan yomg‘ir yog‘gandek bo‘libdi. Shu tariqa yong‘in o‘chirilibdi.

Ushbu matn yuqorida aytilgan bosqichlar orqali tahlil qilinadi. O‘quvchilar bu matnni uqib olganlarida esa Vatanga bo‘lgan muhabbat hissi qanday ekanligini, bir yoqadan bosh chiqarsa barcha maqsadlarga erishish mumkinligini, ahillik va inoqlikni, jasoratni va mard bo‘lishni o‘rganadilar. Matn tahlili uchun kontekst asosida ishlash ham yaxshi samara beradi. Birinchi topshiriqda matndan narsaning nomini bildirgan so‘zlarni va belgini bildirgan so‘zlarni topish aytiladi:

Narsaning nomini bildirgan so‘zlar: gul, maysa, qo‘y-qo‘zi, kaklik, tipratikan, toshbaqa, yomg‘ir, o‘simlik, quyosh, chumoli...

Belgini bildirgan so‘zlar: ahil, inoq, issiq, mitti...

Bu topshiriq orqali o‘quvchilar narsaning nomini bildirgan so‘zlar nima so‘rog‘iga javob bo‘lishini, belgini bildirgan so‘zlar qanday so‘rog‘iga javob bo‘lishini o‘qituvchisi yordamida bilib oladilar.

Ikkinchi topshiriqda ikkita bir xil tovush yonma-yon kelgan so‘zlarni topish kerak bo‘ladi: zarra, qattiq, hamma, mitti. Bu so‘zlarni qatnashtirib gap tuzish topshirig‘i ham o‘quvchilarning fikr bildirish, matn yaratish ko‘nikmalarini rivojlantrish uchun xizmat qilishi mumkin.

Matnni tushunish uchun berilgan topshiriqlarning navbatdagisi o‘quvchining so‘z boyligini oshirish, so‘zni tushunish, mazmunni anglash, his qilish kabi layoqatlarining rivojlanishiga yordam beradi.

Adabiyotlar

1. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. O‘zbek tili. Boshlang‘ich ta’lim. “Ta’lim taraqqiyoti axborotnomasi”. 1,7 – Maxsus sonlar. – T.: “Sharq”. 1999.
2. Shodiyeva B. 2-sinf. II qism. “Novda edutainment”
3. Husanboyeva.Q, Shodiyev.F, Hazratqulov.M. Boshlang‘ich ta’limda adabiyot o‘qitish metodikasi. SamDU.2019.
4. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H. Husnixat va uni o‘qitish metodikasi. –T.: TDPU, 2009.
5. Hazratqulov.M. Jonli alifbo. –Toshkent: Zaminnashr.